

TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING USTUVOR VAZIFALARI

Madaminov Baxromjon Mansurjonovich

FarDu Aniq va tabiiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8053321>

Annotasiya. Maqola Vatanimizning asosiy kuchi, taraqqiyotimizning asosiy ustuni bo'lgan Yoshlarimizning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni va harbiy vatanparvarlik tarbiyalashda asosiy ustuvor vazifalarini o'rganishga bag'ishlangan. Shu bilan birga yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyalash tizimi hamda bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyalashda to'sqinlik qiladigan ayrim muammolar bilan ham tanishtirib o'tamiz.

Kalit so'zlar: Vatan, Vatanparvar, harbiy, konsepsiya, faxriy, xizmatchi, Qo'l jangi, Yozgi biatlon, Merganlik.

PRIORITIES FOR EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM

Abstract. The article is devoted to the study of the main power of our Motherland, the process of upbringing of our youth in the spirit of military patriotism, which is the main pillar of our development, and the main priorities in the upbringing of military patriotism. At the same time, we will also introduce young people to the system of military patriotic education, as well as some problems that hinder the education of military patriotism today.

Key words: Homeland, Patriot, military, concept, veteran, servant, hand-to-hand combat, summer biathlon, sniffing.

ПРИОРИТЕТНЫЕ ЗАДАЧИ ВОСПИТАНИЯ УЧАЩИХСЯ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА

Аннотация. Статья посвящена изучению процесса воспитания молодежи в духе военного патриотизма, главной силы Отечества, главной опоры нашего прогресса и основных приоритетов в воспитании военного патриотизма. Вместе с тем, ознакомим молодежь с системой военно-патриотического воспитания, а также с некоторыми проблемами, которые сегодня мешают военно-патриотическому воспитанию.

Ключевые слова: Отечество, Патриот, военный, понятие, ветеран, военнослужащий, рукопашный бой, Летний биатлон, снайперская стрельба.

Yoshlarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalash o'sib kelayotgan yosh avlodning millati, tili, kasbi va ishtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar Vatanga bo'lgan sadoqatini shakllantirish, fuqarolik burchlarini va konstitusiyaviy majburiyatlarni bajarishga, jamiyat va davlatimizning manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarning ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatiga aytiladi. Yoshlarni harbiy vatanparlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarining faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Sababi yoshlarning asosiy vaqti ta'lim muassasida ta'limtarbiya olishga qaratilgan bo'lib, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida beriladi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha mamlakatimizda ham bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Sababi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ro'hida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Hozirgi murakkab globallashuv

davrida, axborotkommunikasiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan sharoitda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog'liq dolzarb vazifalar va ularni hal yetish yo'llari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya institutlarining bu boradagi roli va ahamiyatini, o'zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy normalarni hisobga olgan holda belgilab beradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23- fevraldagi 140-son qaroriga binoan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" ishlab chiqilgan bo'lib ushbu konsepsiyaning 2 bobida Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va asosiy vazifalari aniq belgilab berilgan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch yekanini chuqur singdirish;

- qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

- milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch yekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

- yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

- har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga yega yoshlarni tarbiyalash;

- O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish - bu bugungi kun talabi yekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib borish.

"Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"da belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi talabalarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha qo'yidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylayman:

Birinchi mamlakatimizda Qurolli Kuchlar sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini targ'ib qilish va talabalar orasida harbiylik kasbiga hurmat va ye'tiborni yanada kuchaytirish maqsadida "ma'naviyat soatlari"da O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga oid, harbiy kasb va harbiylar hayotiga oid mavzularda mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish;

Ikkinchidan 14 yanvar "Vatan g'imoyachilari kuni" munosabati bilan boy hayotiy tajribaga yega bo'lgan harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar faxriylari, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan harbiy xizmatchilar

hamda urush qatnashchilari, boshqa jangovar harakatlar qatnashchilari ishtirokida talabayoshlar bilan rejali uchrashuvlar, davra suxbatlari, turli vektorinalar tashkil qilish, muddatli va kontrakt asosida harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar va talaba yoshlar o'rtasida harbiy sport musobaqalarini tashkillashtirib borish, harbiy sohaga oid mavzularda insholar tanlovi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish;

Uchinchidan 9 may "Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi va front orti mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari ko'rsatgan matonat, mardlik va jasoratning ahamiyatini talaba yoshlar orasida tushuntirish, targ'ib va tashviq qilish bo'yicha madaniy-ma'rifiy va vatanparvarlik yo'nalishidagi tadbirlar o'tkazilishini tashkil qilish, ushbu toifadagi shaxslarni qutlash, holidan xabar olish maqsadida ularning yashash joyiga rahbarlar ishtirokida talaba yoshlarning tashrifini tashkil etish;

To'rtinchidan ta'lim muassasalarida harbiy sportga oid tugaraklarni tashkil etish, jumladan "Qo'l jangi", "Yozgi biatlon", "Merganlik" kabi sport turlaridan tugaraklar ochish va talaba yoshlarni qatnashishini ta'minlash;

Beshinchidan ta'lim muassasasiga yaqin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qismlari bilan hamkorlik aloqalarini tashkil etish, vatanparvarlik tarbiyasiga doir hamkorlik rejasini ishlab chiqish va amalda qo'llash;

Oltinchidan ta'lim muassasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda Qurolli Kuchlarning harbiy xizmatchilarini ishtirokini ta'minlash va harbiy xizmatchilar bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish borasida tajriba almashinish.

Xulosa: Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarining o'rni nihoyatda katta bo'lib, ta'lim muassasasida ta'lim berish bilan birga tarbiyaviy ishlar birgalikda amalga oshiriladi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasasida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlar, harbiy xizmatchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan tadbirlar orqali olib boriladi.

REFERENCES

1. Мадамино́в, Б. (2023). ЎҚУВЧИ ЁШЛАРДА ҚАҲРАМОНЛИК РУҲИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА, ТАШВИҚОТ ИШЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ. ИТМОИЙ ФАНLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(1), 25-26.
2. Mansurjonovich, M. B., & Axadjonovich, Q. C. S. (2022). HARBIY PEDOGOGIKA VA HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 744-749.
3. Vosiljonov, A. (2022). Basic theoretical principles of corpus linguistics. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(2), 1-3.
4. Vosiljonov, A. (2022). LINGVISTIK TADQIQOTLARDA KORPUS O'RGANISH OBYEKTI SIFATIDA. ИТМОИЙ ФАНLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 176-182.
5. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGVISTIKA VA UNING TAHLILIIY SHAKLLANISH TARIXI. *Science and innovation*, 1(B8), 99-105.

6. Vosiljonov, A. (2022). PRAGMALINGUISTICS AND THE HISTORY OF ITS ANALYTICAL DEVELOPMENT. *Science and Innovation*, 1(8), 99-105.
7. Vosiljonov, A., & Isaqova, X. (2023). EFFECTIVENESS OF MOTHER TONGUE EDUCATION IN THE PRIMARY GRADES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
8. Iminov, B. B. (2020). INNOVATIVE CULTURAL LINKS ARE AN IMPORTANT FACTOR IN SOCIAL DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(3), 263-270.
9. Iminov, B. B. (2019). A PHILOSOPHICAL APPROACH TO INNOVATIVE AND CULTURAL-RELATIONS AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 1(5), 157-162.
10. Buzrukova, D. M. (2023). "MUHABBAT" HISSIY KONSEPTINING TURLI LINGVOMADANIYAT VAKILLARI IDROKIDAGI TASVIRI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 3(1), 178-183.
11. Бузрукова, Д. (2022). ҲИС-ТУЙҒУЛАР УНИВЕРСАЛЛИГИ ВА ҲИССИЙ-ЛИСОНИЙ ОЛАМ МАНЗАРАСИГА ПСИХОЛИНГВИСТИК ЁНДАШУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 239-242.
12. Mамуркхановна, D. B. (2022). The Concept Of "Love" As An Important Element Of The Emotional World Landscape. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(5), 95-98.
13. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.
14. Buzrukova, D. M. M. (2023). TARBIYACHI VA OTA-ONALARNING O 'ZARO HURMATGA ASOSLANGAN MULOQOTINING KALIT FAKTORLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 793-797.
15. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIIY XABARLAR*, 1, 318-321.